

**HARBIY XIZMATCHILARNI QADRYATLAR KLASIFIKATSİYADAN  
KELIB CHIQIB KASBGA BO'LGAN MUNOSABATINI NAMOYON  
BO'LISHI**

---

*Melixonov Baxtiyorxon*

*Buxoro Psixologiya va Xorijiy tillar instituti magistranti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada harbiy xizmatchilarning kasbiga nisbatan faolligi va qiziqishini so'nishi mexanizmlariga e'tibor qaratilgan, shu bilan birga mazkur holatdagi shaxslarga qanday yordam berish yo'llariga to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** kasbiy so'nish, kasbiy zerikish, kasbidan bezish, kasbiy o'zlik, kasbiy

**Аннотация:** В статье рассматриваются механизмы снижения активности и интереса к профессии военнослужащих, а также способы оказания помощи отдельным лицам в этой ситуации.

**Ключевые слова:** карьерное выгорание, карьерная скука, карьерное выгорание, карьерная идентичность, карьера.

**Abstract:** This article focuses on the mechanisms of military servicemen's decline in activity and interest in their profession, while also focusing on ways to help individuals in this situation.

**Key words:** career burnout, career boredom, career burnout, career identity, career.

### KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamaksining 1997 yil 28 fevraldag'i 116-qaroriga binoan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi farmonida, kadrlar tayyorlash masalasida alohida to'xtalib qayd qilingan. "Harbiy bilim yurtlari va fuqarolik oliygochlarning harbiy kafedralari oldiga o'quv-tarbiyaviy jarayon sifatini xalqaro andozalar darajasiga ko'tarib, ta'lim-tarbiyaning yangi prinsipial uslublariga, zamonaviy harbiy xizmatchiika va axborot texnologiyalariga katta e'tibor berib, yoshlarni milliy istiqlol, ma'naviy, mafkuraviy va madaniy asosida tarbiyalash, Vatanga muhabbat mustaqil g'oyasiga sodiq-sadoqat ruhida tarbiyalash har bir o'quv yurtining assosiy vazifasidir". Tarbiya jarayonida xalqimizning asrlar osha yashab kelgan an'analari, urf-odatlari, tili va ruhi negiziga qurilgan milliy mustaqillik mafkurasi umuminsoniy qadriyatlar bilan mahkam uyg'unlashgan holda kelajakka ishonch, ularni Vatanga muhabbat, osoyishtalik va farovonligini anglash, halollik, mardlik va sabr-bardoshlikni adolat tuyg'usini tarbiyalash yo'lida tarbiya qilishimiz zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta’minlash kafolatlari batafsil e’tirof etilgan. Siyosiy barqarorlik murakkab va ko‘pqirrali tushunchadir. Bu tushuncha o‘ziga turli siyosiy subyektlar-xalqlar, millatlar ijtimoiy harakatlarning o‘zaro aloqalari tizimini anglatadi. Hozirgi demokratik huquqiy davlatini shakllantirish jarayonida jamiyatimizning osoyishtaligini, farovonligini ta’minlash demokratiyaning inson huquqlarini himoya etish, xavfsizlikni barqaror qilishda hamkorlikni mustahkamlash va Qurolli kuchlarni erkinlashtirish muhim ahamiyatga ega. Siyosiy xavfsizlikning, osoyishtalikning ichki siyosiy, mintaqaviy va xalqaro turlari mavjud. Ichki siyosiy xavfsizlikni ta‘minlashda jamiyatning siyosiy xavfsizlikni ta‘minlashda jamiyatning siyosiy tizimi qismlari davlat uning organlari (siyosiy partiyalar; jamoat birlashmalari va ijtimoiy harakatlar) faoliyati asosiy omil hisoblanadi.

Shaxsiy tarkib faoliyatining samaradorligi, kasbiy mahoratining takomillashuvi har bir harbiy xizmatchining o‘z ustida ishlashi, o‘z-o‘zini rivojlantirishi, takomillashtirib borishi bilan bog’liq bo’ladi. Shaxs o‘z ustida ishlashi natijasida o‘z bilimi doirasini kengaytiradi, ko’nikma va malakalarini takomillashtiradi, xulqi, fe’l-atvoridagi nuqsonlarni yo’qotishga intiladi. Ofitser va askarlarning mustaqil rivojlanishi o‘zaro uzviy bog’liq bo’lgan ikki jarayonda, ya’ni mustaqil tarbiya va mustaqil ta‘lim jarayonida amalga oshiriladi. Bu har ikkala jarayon o‘ziga xos xususiyatlarga, o’zining mazmuniga, shakl va metodlariga ega bo’lib, doimo bir-birini to’ldirib boradi.

Harbiy xizmatchilarni kasbiy tayyorlashga nazariy, amaliy, uslubiy yondashuv, shuningdek, maxsus tayyorgarlikning shart-sharoitlari va usullarini takomillashtirish, belgilash harbiy xizmatchilarning muvaffaqiyati uchun zarur bo’lgan kasbiy bilim, ko’nikma va malakalar va qobiliyat mustaqil ishslash zamonamizning asosiy muammolaridir. Shuning uchun muvaffaqiyatli tarbiyalashning ijtimoiy-psixologik jihatlarini aniqlash muhim. Yangi psixodiagnostika usullarini joriy yetish, oshirish ilm-fanni rivojlantirish, ilg’or innovatsiyalarni rivojlantirishda talaba va yoshlarning faolligi, ularning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat. Jamiyatda o’zligini anglagan shaxs borki, u shu jamiyat a’zolariga manfaati tegadigan biror bir faoliyat turi bilan mashg’ul bo’lishi tabiiy hol xisoblanadi. Xalqimizni kasb – xunarni yomoni bo’lmaydi, degan maqolidan kelib chiqib ta’kidlashimiz mumkinki kasb – hunari orqali xalq e’tiboriga sazovor bo’lganlar haqida tariximizdan ko’plab misollar keltirish mumkin. O‘z kasbini mohir ustasi sifatida faoliyat ko’rsatib kelayotgan shaxslar qatorida kasbidan zerikish hamda kasbidan sovish xolatlari ham uchrab turishi so’ngi vaqtarda ko’plab ijtimoiy fan vakillarini o‘ziga jaib etib kelmoqda. Umumiyligi psixologiyani asosiy tarmoqlaridan biri xisoblanmish mehnat psixologiyasi yo’nalishida shaxs o‘z faoliyatiga nisbatan

ishtiyoqining so'nish jarayoniga alohida e'tibor qaratilib, turli yo'nalishda tadqiqotlar olib borilmogda. [1]

## **MUHOKAMA**

Shaxsda kasbiy faoliyatiga nisbatan yuzaga keladigan ishtiyoqni sustlashishi yoki "so'nishi" – jaxon psixologik adabiyotlarida "burnout" holati deb nomlanadi va bu o'zbek tilida esa "so'nish" degan ma'noni anglatadi. Hozirgi vaqtida shaxsni faoliyatini tahlil etuvchi fanlarda kasbiy so'nish va uning tuzilmasining mohiyati bo'yicha yagona nuqtai nazar mavjud emas. So'nggi ma'lumotlarga tayangan holda, "psixik kuyish" deganda emotsiyal xolatni kasblarda kuzatiladigan psixo-fiziologik, hissiy va yangi texnologiyalarni o'zlashtirishdagi qoloqlik holati tushuniladi. [1] Ijtimoiy psixologiya tadqiqotlari asosida quyidagi soha vakillari kasbiy so'nish jarayoni bo'yicha "xavf" guruhiga taaluqli hisoblanadilar: harbiy xizmatchilar, psixologlar, tarbiyachilar, shifokorlar, tez-tez ish safarlariga chiqadigan, ijtimoiy va madaniy yo'nalishdagi xizmat ko'rsatish sohasi vakillari hamda bank xodimlari. [2] Mazkur xavf guruxida yetakchilik harbiy xizmatchi va psixologlarga tegishli bo'lib, ulardag'i kasbiy so'nish ortiqcha aqliy faoliyat bilan bir qatorda o'z faoliyatlaridan qoniqmasliklari natijasida kasbiy faoliyatlariga nisbatan quyidagicha salbiy yondashuvlar yuzaga keladi- o'z faoliyatiga nisbatan yuqori emotsiyal yondoshish; - jamoada o'z o'mini topa olmaslik hissi; - muntazam faollik talab etilishi, yetarli dam olmaslik; - ish joyidagi salbiy ijtimoiy sharoit va psixologik holat; - kun davomidagi yuklamalarning ko'pligi; - kechiktirilgan natija uchun cheklangan vaqt; - shaxsiy emotsiyal holatni boshqara olmaslik; - sarflangan mehnat uchun mos kelmaydigan natijaning bo'lishi; - hamkasblar, ma'muriyat, qiyin vaziyatlarda to'g'ri muloqot yo'lini tanlash ko'nikmalarining yo'qligi; - harbiy xizmatchiik faoliyatni tashkil qilishning to'g'ri boshqarilmasligi: yuklama, dars jadvali, ma'naviy va moddiy qo'llab quvvatlanmaslik; - ma'lumotlarning haddan ortiq ko'pligi; - qayta – qayta nazorat va tekshiruvlar. Yuqorida keltirilgan omillar ustunlik qilishi shaxsning o'z faoliyatidan bezish yoki zerikish, stress xolatiga tushib qolishiga ta'sir etishi tabiiy xol xisoblanadi. [3] Mazkur xolatda aksari mutaxassislar jizzaki bo'lib ziddiyatli vaziyaga moyilliklari ortib ketadi. Ana shunday holatlarni sababini tashxis qilib aniq va muvaffaqiyatli psixologik maslahat tashkil etish uchun kasbiy so'nish va kasbiy mutanosiblikdan uzoqlashishni o'rganishning asosiy omillariga e'tibor qaratish lozim. Bular: - Bilim berishni takomillashtirishda yangi g'oyalarni kiritavermaslik. - Harbiy xizmatchiik faoliyatga ko'r-ko'rona texnologiyalarni joriy etavermaslik. - Shaxsning o'z kasbiga nisbatan mutanosibligini baholash. - Jamoaning psixologik iqlimining ta'lim jarayoniga ta'sirini tahlil etish. - Harbiy xizmatchi shaxsining yashirin imkoniyatlarini ochish. - Har bir harbiy xizmatchi kompetensiyasining psixologik asoslarini o'rganish orqali o'quvchilar bilimining samaradorligini oshirish. - Ochiq darslarning kam tashkil etilishi va unda psixologik analizning mavjud emasligi. Quyida kasbiy so'nishning

asosiy omillaridan hisoblanmish ikki olmil haqida to‘xtalib o‘tishni lozim topdik. Aynan quyidagi ikki sabab yosh mutaxassislarda ko‘proq uchrashi so‘ngi vaqtarda qayd etib borilmoqda. Shu sababli tajribali mutaxassislar o‘zlarining tajribalaridan kelib chiqqan xolda to‘g‘ri maslahatlar berishlari lozim bo‘ladi. [4] Kasbiy so‘nish va kasbiy mutanosiblikdan uzoqlashishning asosiy sabablari: 1. Individual sabablar: A) o‘z ustida ishslashdan to‘xtab qolish; B) fanga oid yangi bilimlarni o‘zlashtirmaslik; V) doimiy bir xil metodik uslubga yopishib olish; G) o‘z faoliyatidan qoniqmaslik; D) o‘ziga bino qo‘yib, boshqalarni mensimaslik; Ye) moddiy manfaatdorlikdan qoniqmaslik; Yo) hamkasblarining darslariga qatnashmasligi. 2. Ijtimoiy-psixologik omillar: A) atrofdagilarning diqqat e’tiboridan qolish; B) atrofdagilarning nazoratidan chetda qolish; V) faoliyatiga mos rag‘batlantirilmashlik; G) o‘z sohasi mutaxassislaridan uzoqlashish; D) kamchiliklarini rahbariyat tomonidan tez-tez eslatib turilishi. Yosh mutaxassislarda kasbiy so‘nish yoki kasbdan uzoqlashishni sezgan tajribali hamkasblar va psixolog mutaxassis quyidagilarga e’tiborini qaratish maqsadga muvofiq xisoblanadi. [4] Harbiy xizmatchiik faoliyatda kasbiy so‘nishning oldini olish uchun quyidagilarni tavsiya etish mumkin: 1. Muntazam harbiy xizmatchi malakasini oshirib borish. 2. Muntazam psixologik testlar orqali shaxsini baholab borish. 3. Turli trening, davra suhbatlari hamda psixologik konsultatsiyalar tashkil etish. 4. Fan sohasida seminarlar tashkil qilish. 5. Harbiy xizmatchiik faoliyatni analiz-sintez hamda umumlashtirish yo‘nalishida psixologik seminarlar o‘tkazish. 6. Shaxsning kasbiy xususiyatlarini o‘zi tomonidan baholash usullarini o‘rgatib borish. 7. Zamонавиy psixologik metodlar bilan qurollantirib borish.

### **TADQIQOT NATIJALARI**

Jamiyatimizda Qurolli Kuchlarda vatanparvarlik, harbiy va ma’naviy tarbiya yo‘nalishlari bo‘yicha shaxsiy tarkibni tarbiyalashning qat’iy tizimi yuzaga keldi va hozirda u yanada takomillashtirmoqda. Boshqa mamlakatlarning tajribalari shuni ko‘rsatmoqdaki, ta’lim-tarbiyaning yangi tizimiga o‘tishning shartlaridan biri tarbiyaviy ishlar mexanizmlarini tubdan o‘zgartirish, yosh avlodni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashning o‘ziga xos ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, shaxsiy tarkibga oid masalalarni aniq va ravshan tushuntirish maqsadiga muvofiqdir. Bizga ma’lumki, iqtisodiyot va ma’naviyat jamiyat hayoti taraqqiyotining o‘zaro ajralmas ikki muhim tomonlaridir. Ular bir-birini inkor etmaydi, balki bir-birini quvvatlab o‘zaro ta’sir asosida rivojlanib va takomillashib boradi.

Ma’naviy javobgarlikni, uning inson, xalq va millat, jamiyat va davlatning kuch-qudrati manbai ekanligini, ma’naviyat bo‘lmagan joyda baxt-saodat ham, iymone-tiqod ham, el-ulusda din-u-diyonat ham bo‘lmasligini kishilar ongiga sindirish milliy istiqlol mafkuramizning asosiy mohiyatini tashkil etadi. Yuksak madaniyat va ma’rifat sohibi bo‘lgan xalq va millat o‘z-o‘zini va o‘zga xalqlarni qadrlaydi, qaddini tik tutadi, o‘tmishi bilan faxrlanadi, keljakka umidvorlik bilan qaraydi. Ma’naviy javobgarligi

xalqlar va mamlakatlar kishilarini qon-qardosh qiladi. Ularning taqdirini o‘zaro hurmat asosida yaqinlashtiradi, Uni o‘lchab ham, poyoniga yetib ham bo‘lmaydi. U inson uchun butun bir olam, ma’naviyat insonga havodek, suvdek zarur. Ma’naviyat insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir. U yo‘q joyda hech qachon baxt-saodat bo‘lmaydi. Ma’naviyatni mustahkamlash uchun mehnat va mablag‘ni ayash o‘z kelajagiga bolta urish demakdir. Shularni inobatga olgan holda quyidagi fikrlarni taklif qilaman.

Harbiylar orasida ilm-fan, adabiyot, san’at, xullas ma’naviy madaniyatni boyitish va takomillashtirish, umuminsoniyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shish g‘oyalarini tadbiq qilish.

Hozirgi kunda harbiylarning ongini har xil keraksiz narsalar bilan chalg‘itmasdan, ularning tarbiyasida muntazam ravishda shug‘ullanish lozim. Ularni otabobolarimizdan meros bo‘lib kelayotgan moddiy va ma’naviy madaniyat durdonalari va an’analarini qadrlashga o‘rgatishimiz, ularning mohiyatini tushunish, qadriga yetishlari uchun yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishimiz lozim.

## **XULOSA**

Shaxsda kasbiy so‘nish yuzaga kelgan holda uni bartaraf etish uchun harbiy xizmatchiik jamoa birgalikda aniq reja asosida hamjihatlik bilan faoliyatlarini tashkil etishlari orqali mutaxassisni saflarida saqlab qolishlari mumkin. Mazkur faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishda psixologni sa’iy harakatlari alohida e’tiborga loyiq xisoblanadi. Harbiy xizmatchiik faoliyatda yuzaga kelgan kasbiy so‘nishni bartaraf etish: [5] 1. Shaxs bilan individual psixologik trening va suhbatlar tashkil etish. 2. Fan sohasidagi yangiliklar bilan tanishtirish uchun o‘quv seminarlar tashkil etish. 3. Shaxs imkoniyatlarini o‘rganish orqali tavsiya ishlab chiqish. 4. Harbiy xizmatchiik faoliyatda yuzaga kelgan stress, depressiya holatlarini aniqlash va individual psixologik maslahatlar ishlab chiqish. 5. Jamoaning psixologik iqlimini tahlil etish va tavsiyalar ishlab chiqish. Ijtimoiy faoliyatda har bir shaxs bilan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan kasbiy so‘nish ma’lum bir vaqt oralig‘ida o‘tib ketish tabiiy hol hisoblanadi. Agar unga ijobjiy yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish orqali yordam ko‘rsatish mumkin. Shu sababli harbiy xizmatchiik soxada faoliyat ko‘rsatayotgan amaliyotchi psixolog pedagogik jamoadagi birorta ham harbiy xizmatchini o‘z nazoratidan chetda qoldirmasligi lozim.

## **REFERENCES**

1. G‘oziyev E.G‘. Oliy maktab psixosi. -T.: O‘qituvchi, 1997. – 197 b. K.B.Qodirov “Kasb tanlashga tayyorlashning psixologik jihatlari va professional loyihalar” Toshkent, 2001. – 36 b.
2. Ушинский К. Д. Избранные педагогические сочинения/Человек как предмет воспитания. Опыт педагогик антропология (1861). — М.: Изд-во Академии наук РСФСР, 1945. — С.475.

3. Abdulakimovna, S. S. (2021). O'QITUVCHILARNING O'ZINI-O'ZI RIVOJLANISHI KASBIY KOMPETENTLIKNI OSHIRISH. Jahon ijtimoiy fanlar xabarnomasi, 3(10), 58-60.
4. Shakarboyeva S. BO'LAJAK O'QITUVCHIILARDA O'Z USTIDA ISHLASH FAOLIYATINI TARBIYALASHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK JIHATLARI //Jurnal Harbiy xizmatchiiki i psixologii v sovremennom obrazovanii. – 2022. – T. 2. – №. 6.
5. Botirova D.B. Pedagogik faoliyatda kasbiy so'nish jarayonining ijtimoiy - psixologik asoslari //Jurnal Ta'lim va innavatsion tadqiqotlar – 2023. – T. 2. – №. 3.
6. Маклаков А.Г. Обшая психология. Учебное пособие. СПб: Питер 2003г 7. Психология. Учебник. Под ред. Рогова Е.И Владос 2005г

**Internet saytlari**

1. [www.expert.psychology.ru](http://www.expert.psychology.ru)
2. [www.psycho.all.ru](http://www.psycho.all.ru)
3. [www.psychology.net.ru](http://www.psychology.net.ru)
4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)